

2024-yilning I yarim yilligi davomida soliq xizmati organlarini korrupsiyadan holi tizimga aylantirish yuzasidan olib borilgan ishlar

Korrupsiyaga qarshi kurashishda bevosita Shaxsiy xavfsizlik tuzilmasi tomonidan amalga oshirilgan ishlar

Joriy yilning o'tgan davrida:

- **salbiy holat**larni sodir qilmaslik yuzasidan **2 492 nafar** xodim bilan alohida profilaktik tarbiyaviy suhbatlar o'tkazildi;

- turli soliq tekshiruvlarini o'tkazishga safarbar qilingan xodimlar bilan **21,4 ming** suhbatlar o'tkazilib, **tilxatlar** olindi;

- jami **1 118 ta xizmat tekshiruvi** va **xizmat o'rganishlari** o'tkazilib, **724 ta** holatda hujjatlar huquqiy baho berish uchun huquqni himoya qilish organlariga yuborildi.

O'tkazilgan xizmat tekshiruvi va o'rganishlari yakuni bilan davlat budjetiga **115,9 mlrd so'm** soliq va to'lovlar qo'shimcha hisoblanib, shundan **54,4 mlrd so'm** davlat budjetiga undirildi.

Korrupsiyani oldini olish yuzasidan huquqiy targ'ibot-tashviqot tadbirlari

Soliq xizmati organing korrupsiyaga qarshi kurashish tuzilmalari tomonidan 2024-yil I yarim yilligi davomida korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish borasida bir qator targ'ibot ishlari olib borildi.

Xususan, joylarda **1 100** dan ortiq uchrashuv va seminarlar o'tkazildi. Shundan, **399** tasi huquqni muhofaza qiluvchi organlar hamkorligida bo'lib o'tdi. Qolaversa, **700** dan ortiq OAVlarda (*43 ta radio, 50 ta televideniya, 23 ta matbuot va elektron nashrlarda, 610 ta ijtimoiy tarmoqlarda*) chiqishlar amalga oshirildi.

Bevosita Soliq qo'mitasida o'tkazilgan tadbirlar qo'mitaning rasmiy veb saytida e'lon qilib borildi.

Jazoni o‘tash muassasalarida saqlanayotgan sobiq soliq xodimlari (mahbuslar)dan maxsus intervyular olinib, Zo‘r TV telekanali mutaxassislari bilan hamkorlikda **“Ishonch va Nafs chegarasi”** nomli maxsus videorolik tayyorlandi.

Ushbu videorolik soliq xizmati organida faoliyat yuritayotgan barcha xodimlarga namoyish etilib, tegishli ogohlantiruv-profilaktik tadbirlar o‘tkazildi.

Korrupsiyaning oldini olish borasida raqamli texnologiyalardan foydalanish

Sohada korrupsiya holatlarini oldini olishda raqamli texnologiyalarning keng tatbiq etilishi muhim qadamlardan biri bo‘ldi. Soliq to‘lovchini hisobga olishdan tortib majburiyatini bajarishgacha bo‘lgan jarayon avtomatlashtirildi.

Soliq to‘lovchilarga qulaylik yaratish, soliqqa oid hisob-kitob jarayonlarini soddalashtirish va iqtisodiyotda xufiyona aylanmalarni o‘z vaqtida aniqlash va oldini olishni ta‘minlash maqsadida 2024-yil I yarim yilligi davomida **2 ta** yangi axborot tizimi (*“Soliq boshqarmalari ma‘murchiligi”* hamda *“Tovar-transport yuk xatlarini elektron shaklda rasmiylashtirish, saqlash va ularning hisobini yuritish”*) va **2 ta** elektron xizmat (*“Tovar-transport yuk xati”* va *“Ijaraga berish”*) ishlab chiqildi.

Korrupsiyaga qarshi kurashishda aloqa kanallari vositasidan foydalanish

Soliq qo‘mitasi tizimida xodimlar xatti-harakatlarining qonuniyligiga, odob-axloq normalariga rioya qilishga, shuningdek, korrupsiya va boshqa huquqbuzarlik holatlari sodir etilishini oldini olishga qaratilgan aloqa kanallari uzluksiz faoliyat yuritmoqda.

Soliq organining rasmiy veb-saytidagi *“Ishon telefonlari”*, Shaxsiy xavfsizlik tuzilmalarining telefon raqamlari, telegram ijtimoiy tarmog‘idagi *“@dsq_anticorruptsiya_bot”* kanali, *“Elektron soliq xizmatlari”* portali va boshqa kanallari to‘g‘risidagi ma‘lumotlar to‘liq yangilandi.

O‘tgan davrda *“@dsq_anticorruptsiya_bot”* orqali kelib tushgan **240 dan** ortiq murojaatlar ijobiy hal etildi.

Soliq xizmat organi xodimlarining noqonuniy xatti-harakatlari yuzasidan aloqa kanallari orqali kelib tushgan murojaatlarning **84,2 foizida** ko‘tarilgan masalalar ijobiy hal etildi va **4,1 foizi** bo‘yicha xodimlarga tegishli choralar ko‘rildi, shuningdek, **11,7 foizi** o‘z tasdig‘ini topmaganligi sabab tugatildi.

Erishilgan natijalar bo'yicha qisqacha

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 12-yanvardagi PQ-81-son qaroriga muvofiq, Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi tomonidan **95 ta** davlat organi va tashkilotlarida 2023-yilda korrupsiyaga qarshi kurashish borasida olib borilgan ishlar samaradorligi reyting baholashdan o'tkazildi.

Baholash natijalariga ko'ra, **42 ta** davlat organi va tashkilotlar samaradorlik ko'rsatkichlari, shu jumladan, Soliq qo'mitasining natijalari ham **"yaxshi"** deb baholandi. Agentlik va ekspertlarning xulosasiga asosan Soliq qo'mitasiga **82 ball** berildi.

Soliq organi o'zining korrupsiyaga qarshi siyosatida belgilab olgan asosiy tamoyillaridan kelib chiqib, korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini doimiy ravishda takomillashtirib boradi hamda korrupsiyadan holi davlat organi sifatida tan olinishi uchun barcha choralarni ko'radi.

Soliq qo'mitasi Shaxsiy xavfsizlik boshqarmasi